

O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mambetova Toydiq Maxmudovna

Qoraqolpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14048677>

Annotatsiya. Ushbu maqola mabkab o'quvchilarda XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni rivojlanirishga qaratilgan. Milliy qadriyatlarni saqlagan holda o'quvchilar nafaqat fanlarni o'rganadi, balki o'zida ko'nikmalarni ha'm shakillantirib borishi zarur. Bu albatta davr talabidir. Maqola, zamonaliviy bilimlar asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarni 4K tamoyili asosida rivojlanirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: XXI asr ko'nikmalari, 4K yondashuvi, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, zamonaliviy yondashuvlar.

DEVELOPING 4K SKILLS IN STUDENTS

Abstract. This article is aimed at developing students' life skills necessary in the 21st century. While preserving national values, students should not only study subjects, but also develop their skills. This is definitely a requirement of the period. The article is aimed at developing the skills of the XXI century among students based on modern knowledge on the principle of 4K.

Key words: 21st century skills, 4K approach, collaborationism, communicativity, creative thinking, critical (critical) thinking, contemporary approaches.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАБОТЫ С 4К У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Данная статья направлена на развитие у школьников жизненных навыков, необходимых в XXI веке. Сохраняя национальные ценности, учащиеся должны не только изучать предметы, но и формировать у себя навыки. Это определенно требование периода. Статья направлена на развитие навыков XXI века у учащихся на основе современных знаний по принципу 4K.

Ключевые слова: Навыки XXI века, подход 4K, совместная работа, коммуникативность, креативное мышление, критическое (критическое) мышление, современные подходы

Prezidentimiz boschiligidagi amalga oshirilayotgan ishlari, albatta xalqimizning dunyoqarashi, ongi va madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Taraqqiyot hamma vaqt ham bir tekisda rivojlanmaydi, chunki u o'z yo'lida qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga boy bo'ladi. Ana shunday vaziyatda o'z yolini tog'ri tanlay olishi uchun kelajak avlodimizni bugundan tog'ri ta'lim tarbiya bilan mashg'ul qilishimiz kerak.

Bugungi kunda darsliklar ha'm 4K tamoyili asosida ishlab chiqilgan. Bu tamoyilning asosiy vazifasi quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish/yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi.

Aslida 4K modeli o'z nomi bilan to'rtta ko'nikmani o'zida mujassam etadi. Ular kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlashdir. Ularga aloxida tariflar ha'm bor.

Kollaboratsiya: o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiriradi. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

O'qituvchilar ko'pincha bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bizda hali sharoit yoq deb takidlaydi. Aslida esa "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv makteblarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Shuning uchun ha'm makteblarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri. O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda darsni tashkillashtirish juda katta ahmiyat kasb qiladi. O'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida o'qituvchilar bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'quvchi yosh avlod shiddat bilan rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrining munosib vakillari bo'lishi uchun jahon andozalariga mos keluvchi yuksak bilim va idrokni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak. Avvalambor, o'qituvchi o'qitish uslubini tubdan o'zgartirsa, darslarda qoshimcha texnologiyalardan va albatta dunyo mamlakatlari tajribasidan ham foydalanishsa samarali natija beradi. Xalqaro standartlarga javob bera oluvchi kadrlarni yetishtirishda jahon reytingida o'z o'rniga ega bo'lgan ta'lim tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada dunyo mamlakatlari tajribasidan ham keng foydalanilmoqda. Bu XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarimizda rivojlantirish juda katta ahmiyat kasb qilmoqda. Ularga muammolarni hal etish, birgalikda ishslash va yechim toppish imkoniyatini beradi.

4K ko'nikmalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Bolalar kelajakda muvaffaqiyatga erishishi uchun to'rtta yo'nalish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchilar avvalombor o'zлari shu ko'nikmalarni o'zida mujassam qilishlari zarur. O'qituvchilar o'z darslarida o'qitishning noan'anaviy usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda ularni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratishlari kerak.

O'quvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarni amalda qo'llash uchun imkon yaratish kerak.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – B. 217.
2. Rashidxo’jayev M.M. Ta‘lim sohasidagi xalqaro hamkorlik va uning huquqiy asoslari//O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 8-son. 20.05.2022
3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. (2008). Zamonaliv pedagogik texnologiyalarni amaliyotgajoriy qilish. - T.: «Fan va texnologiyalar».